

INTELLEKTUAL MULKKA QARSHI QARATILGAN JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISH BUTUN DUNYO NIGOHIDA

Abdullo Xabibjonov

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistraturasi tinglovchisi*

Annotatsiya: *Maqolada intellektual mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar yuzasidan butun dunyo mamlakatlari tomonidan olib borilayotgan ishlar yoritilgan. Bunda Bern konvensiyasi, Savdoga oid intellektual mulk huquqlari haqidagi bitim (TRIPS) va ilmiy izlanishlar o'rganilib, rivojlangan davlatlar tomonidan intellektual mulk bilan bog'liq jinoyatlarga keskin kurash to'g'risidagi ishlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *intellektual mulk, mualliflik huquqi, jinoyat, jazo, zarar, Bern konvensiyasi, TRIPS, kontrafakt mahsulotlar.*

Hozirgi kunda ko'plab davlatlar intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar hamda jinoyatlarni jazolash, eng muhimi kelgusidagi huquqbuzarliklarni oldini olish hamda innovatsiyalarni himoya qilish va investitsiyalarni rag'batlantirishga oid milliy qonunchiligini rivojlantirmoqdalar.

Umuman olganda, nafaqat intellektual mulk sohasida, balki har qanday sohadagi qilmish jinoiy deb topilishi uchun u ikkita shartga javob berishi kerak: – qilmish noqonuniy bo'lishi hamda mazkur qilmish jinoyat qonuni bilan taqiqlangan bo'lishi kerak.

Intellektual mulk huquqbuzarliklari uchun “zarar” tushunchasi asosiy rol o'ynaydi. Zarar intellektual mulk egalari yoki potentsial iste'molchilar manfaatlariga yoki odamlarning sog'lig'i va xavfsizligiga yetkazilishi mumkin.

Bunday zararni faqatgina fuqarolik-huquqiy himoya vositalari bilan bartaraf etib bo'lmaydi, chunki bu vositalar mazkur zararni kelgusida to'xtatib qolish choralari ko'rmaydi. Shu bilan birga, agar intellektual mulk huquqi boshqa birovning savdo belgisidan yoki mualliflik huquqi bilan himoyalangan asaridan (odatda tijorat maqsadlarida) tegishli ruxsatsiz yoki litsenziyasiz qasddan foydalanish natijasida buzilgan bo'lsa, bu jinoiy huquqbuzarlik hisoblanadi. Bunda qilmish davlat tomonidan belgilangan sanksiya bilan ta'minlanadi va bunday huquqbuzarlik uchun jinoiy protseduralar qo'llanilishi kutiladi. Bu holatda “qasddan foydalanish” faqat xato yoki tasodifiy holatni emas ya'ni ehtiyotsizlik natijasida bunday holatlar yuzaga kelishi istisno etiladi, balki qasddan qilingan harakatni anglatadi.

Bunday aldash qasddan potentsial foydalanuvchilarni chalg'itish bo'lib, bu intellektual mulk egalarining brendini obro'sini tushurishga va soxta bo'lsa, uni haqiqiy deb hisoblaydigan potentsial xaridorlarni aldashga olib keladi. Shunga ko'ra, ko'p yurisdiksiyalar intellektual mulk huquqini buzganlik uchun sanksiyalar belgilagan,

chunki bu huquqbuzarliklar jinoyat huquqi talablariga ko'ra nafaqat manfaatdor shaxsga, balki butun jamiyatga zarar yetkazadi.

Milliy qonunlarga intellektual mulk sohasida jinoiy jazo choralarining kiritilishi Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilishga doir Bern konvensiyasi (1971-yilda qabul qilingan Parij hujjati), 1994 yilda qabul qilingan Savdoga oid intellektual mulk huquqlari haqidagi bitim (TRIPS)ning natijasi bo'lib, u barcha a'zo davlatlarda, birinchi navbatda, qalbaki ("kontrafakt") mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishga va butun dunyo bo'ylab intellektual mulk qaroqchiligiga qarshi kurashish uchun minimal standartlarni belgiladi. Butun dunyoda kontrafakt bozori yuz milliard dollarlab yo'qotishlarga olib keladi. Kontrafakt mahsulotlar bozori hozirgi kunda jahon savdosining 5% dan ko'prog'ini tashkil qilada va bu ko'rsatkich tobora o'sib bormoqda.⁴³

Bundan tashqari, XXI asrda internet bo'ylab kino, media, qo'shiq, programmalar va tadbirkorlik sirlari sohasida ham intellektual mulk qaroqchiligi tarqalmoqda. Shu bilan birga, kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ko'plab iste'mol mahsulotlari, jumladan elektronika, ko'ngilochar va moda tovarlari uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda hamda kontrafakt tovarlar dori-darmon sohasiga ham kirib borib, jamiyat manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti "kontrafakt dori vositalari"ni "qasddan va aldash yo'li bilan original mahsulotni yoki uning manbasini haqiqatga to'g'ri kelmagan holda ko'rsatish" deb ta'riflaydi.

TRIPS Bitimini ishlab chiquvchilar kontrafakt va qaroqchilik ko'rinishidagi intellektual mulk buzilishlarini jinoyat deb va bunday jinoiy jazo choralarining asosiy maqsadi bu jinoyatlarni oldini olish deb belgiladilar.

TRIPS kelishuvining 61-moddasiga ko'ra, a'zo davlatlar kontrafakt va qaroqchilikka qarshi himoya vositalarini ta'minlashi kerak, ular qamoq yoki jarimalarini o'z ichiga olishi kerak, bu huquqbuzarliklarni to'xtatishni ta'minlash uchun yetarli bo'lgan tegishli jinoyatlar uchun qo'llaniladigan jazolar o'zaro monand bo'lishi kerak.

Biroq, TRIPS kelishuvi standartlari rivojlangan davlatlarda yetarli miqdorda intellektual mulk egalarini qoniqtirmayotganligi sababli, ushbu davlatlar tomonidan intellektual mulk huquqlarini himoya qilish yo'lida qo'shimcha chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlar hukumatlari savdo sohasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzib, bu hujjatlarda intellektual mulk egalarining talablariga javob beradigan, kontrafakt, qaroqchilik va boshqa intellektual mulk huquqbuzarliklariga nisbatan jinoiy javobgarlikning kuchliroq darajasini belgilab olmoqdalar.

⁴³ Dadajonov, Dilshodjon Davlatjon O'G'Li (2022). Kontrafakt mahsulotlarni olib kirish va muomalaga kiritish harakatlari uchun javobgarlik masalalarini takomillashtirish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (3), 1130-1138.

Masalan, YEI va AQSHning boshqa davlatlar bilan tuzilgan bir qator kelishuvlarida intellektual mulkga doir batafsil normalar, shu jumladan, intellektual mulk huquqlari buzilishlariga oid jinoiy javobgarlik choralari alohida tarzda belgilangan. Tijorat sohasidagi intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun jinoiy jazo choralari kuchaytirish taklifi AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya, Shveysariya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Kanada va Meksika tomonidan qabul qilingan ko'p tomonlama kelishuv hisoblangan Kontrafaktga qarshi savdo bitimlarining (ACTA) markaziy e'tiborida.

Biroq, mazkur kelishuvlar rivojlanayotgan davlatlar tomonidan keskin noroziliklarga sabab bo'lgani uchun Yevropa ittifoqi va boshqa imzolovchilar tomonidan ratifikasiya qilinmasdan qolib ketgan.

Shunday qilib, dunyo miqyosida qalbakilashtirishga qarshi kurash bo'yicha juda shov-shuvli ko'p tomonlama kelishuv rivojlanayotgan davlatlar evaziga rivojlangan davlatlarga imtiyozlar berishi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Biroq shunga qaramay rivojlangan davlatlarda intellektual mulk jinoyatlariga qarshi kurash bugungi kunda ham davom etmoqda. Mazkur kurash yo'lida Yevropa ittifoqi hattoki Ittifoq darajasidagi keng ko'lamli operativ tadbirlar o'tkazmoqdalar, chunki intellektual mulk jinoyatlariga qarshi kurash Yevropol (Yevropa ittifoqining polisiya mahkamasi) va uning hamkor huquqni muhofaza qilish organlari uchun asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Shunday muvaffaqiyatli tadbirlar qatoriga 2015-yil noyabr oyida Belgiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Niderlandiya, Sloveniya va Ispaniyadagi yirik portlar va aeroportlarda 350 ta konteyner tekshiruvini o'tkazilgan 12 kunlik xalqaro aksiyada ("Kumush Bolta" nomli) 190 tonna noqonuniy yoki kontrafakt pestitsidlar musodara qilinishi kiradi.

Shuningdek, Interpol va Yevropol tomonidan aholi salomatligi va xavfsizligini himoya qilish uchun hamkorlikda tashkillashtirilgan OPSON V tadbirlar turkumida 2015-yil noyabridan 2016-yil fevraligacha bo'lgan davrda 57 mamlakatda olib borilgan tadbirlarda 10 ming tonna va bir million litrdan ortiq xavfli qalbaki oziq-ovqat va ichimliklar musodara qilingan.

Bundan tashqari, "Onlayn va offlayn qaroqchilik" va kontrafaktga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida, 2016 yilda Yevropol va Yevropa ittifoqining Intellektual mulk idorasi (EUIPO) Yevropol tarkibida faoliyat yurituvchi Intellektual mulk jinoyati bo'yicha muvofiqlashtirilgan koalitsiya (IPC3) ham tashkil etildi va hozirgi kunga qadar samarali ishlar olib borilmoqda.